



"CONSTITUTIONAL ECONOMY" IS A LEGAL GUARANTEE OF ECONOMIC DEVELOPMENT

Rasulov Bekzod Boymuratovich

Associate Professor of Samarkand State University
of Architecture and Civil Engineering.

E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15038919>

ARTICLE INFO

Received: 12th March 2025

Accepted: 16th March 2025

Online: 17th March 2025

KEYWORDS

Constitution, constitutional economics, property, inviolability of property, private property, entrepreneurship, small business, legal guarantees, rights and obligations.

ABSTRACT

Today, the rapid development of our country's economy and the increase in the standard of living of the population are closely connected with the wide opening of entrepreneurship by our state. Constitutional guarantees of the economy serve as a solid foundation for its sustainable development and growth of the population's well-being. In this article, based on foreign experience and our national legislation, the constitutional and legal foundations of the economy and development trends, legal problems arising in the process of economic development and their solutions are scientifically and theoretically analyzed, proposals and comments are developed.

«КОНСТИТУЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА» — ЭТО ПРАВОВАЯ ГАРАНТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Расулов Бекзод Боймуратович

Доцент Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета.

E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15038919>

ARTICLE INFO

Received: 12th March 2025

Accepted: 16th March 2025

Online: 17th March 2025

KEYWORDS

Конституция, конституционная экономика, собственность, неприкосновенность собственности, частная собственность, предпринимательство, малый бизнес, правовые гарантии, права и обязанности.

ABSTRACT

Сегодня стремительное развитие экономики нашей страны и повышение уровня жизни населения тесно связаны с широким открытием нашим государством предпринимательства. Конституционные гарантии экономики служат прочной основой ее устойчивого развития и роста благосостояния населения. В данной статье на основе зарубежного опыта и нашего национального законодательства научно-теоретически проанализированы конституционно-правовые основы экономики и тенденции развития, правовые проблемы, возникающие в процессе развития экономики и их решения, разработаны предложения и комментарии.



**“KONSTITUTSIYAVIY IQTISOD” IQTISODIY TARAQQIYOTNING HUQUQIY
KAFOLATI**

Rasulov Bekzod Boymuratovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti.

E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15038919>

ARTICLE INFO

Received: 12th March 2025

Accepted: 16th March 2025

Online: 17th March 2025

KEYWORDS

Konstitutsiya, konstitutsiyaviy iqtisod, mulk, mulk daxlsizligi, xususiy mulk, tadbirkorlik, kichik biznes, huquqiy kafolatlar, huquq va majburiyatlar.

ABSTRACT

Bugun mamlakatimiz iqtisodiyotining tez sur'atlarda rivojlanishi, aholi yashash darajasining o'sishi bevosita davlatimiz tomonidan tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Iqtisodiyotning konstitutsiyaviy kafolatlari uning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligining oshishi uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Mazkur maqolada iqtisodiyotning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va rivojlanish tendensiyalari, iqtisodiyotni rivojlantirishda uchraydigan huquqiy muammolar hamda ularning yechimi horij tajribasi va milliy qonunchiligimiz asosida ilmiy-nazariy tahlil qilindi, taklif va mulohazalar ishlab chiqildi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda barcha sohalarni keng rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish maqsadida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga kirishildi. Ayniqsa, davlat mulkini xususiylashtirish, mamlakatda yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash, huquqiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish borasida o'ta muhim qadamlar tashlandi.

Iqtisodiyotning huquqiy asoslari har qanday davlat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Davlatning iqtisodiy siyosati bozor iqtisodiyotiga asoslanib, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik erkinligiga kafolat beradi.

Ushbu mavzuni tadqiq etishimizda "Konstitutsiyaviy iqtisod" tushunchasini tahlil qilish orqali to'laroq ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Iqtisodiyot inson faoliyatining asosiy sohalaridan biri sifatida jamiyatda o'rnatilgan qonunchilik doirasidan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birga, huquq bir qator kelib chiqishi nazariyasiga (tabiiy huquq nazariyasi, huquqning teologik nazariyasi va boshqalar) muvofiq insoniyat jamiyatining paydo bo'lishi bilan birga paydo bo'lganiga va ilmiy ishlarda "iqtisod" atamasi miloddan avvalgi IV asrda uni "tabiatshunoslik" deb atagan Ksenofont tomonidan paydo bo'lganiga qaramay, ikki fanning bir-biriga aloqasi va ta'siri faqat miloddan avvalgi 20-asrda boshlangan.

1982 yilda "konstitutsiyaviy iqtisodiyot" atamasi birinchi marta qo'llanila boshlangan. Konstitutsiyaviy iqtisod - davlatdagi iqtisodiy va siyosiy faoliyatni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy huquq normalarida aks ettirilgan iqtisodiy faoliyatning konstitutsiyaviy rivojlanish darajasiga ta'sirini o'rganuvchi ilmiy soha sifatida e'tirof etila boshlandi.



Konstitutsiyaviy iqtisod - bu iqtisod va konstitutsiyaviylik chorrahasida joylashgan ilmiy-amaliy yo'nalish bo'lib, Konstitutsiyada kafolatlangan iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarga ta'sir qiluvchi davlat qarorlarini qabul qilishda huquqiy va iqtisodiy omillarning o'zaro ta'sirini, shuningdek, Konstitutsiyani qo'llash muammolari bilan iqtisodiyotning tuzilishi va faoliyati o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflaydi va tahlil qiladi.

Konstitutsiyaviy iqtisodni qo'llash masalalarini tarixiy jarayonning o'ziga xos bosqichi xususiyatlari va bunday masalalar ko'tarilgan vaqtni hisobga olmaguncha to'liq anglab bo'lmaydi[1].

Konstitutsiyaviy iqtisod iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish muammolarining yechimini nafaqat iqtisodiy maqsadga muvofiqlik, balki davlatning konstitutsiyaviy tuzilmasining voqeliklaridan kelib chiqib topish zarurligi haqidagi tushunchaning kuchayishini aks ettiradi[2].

Bundan ko'rinib turibdiki, konstitutsiyaviy iqtisodiyot an'anaviy ravishda davlatdagi iqtisodiy va siyosiy faoliyatni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy huquq normalarida o'z aksini topgan, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni erishilgan konstitutsiyaviy rivojlanish darajasi bilan optimal uyg'unlashtirish tamoyillarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalish sifatida tavsiflanishi mumkin.

Konstitutsiyaviy iqtisod fanlararo bilimlarni ifodalaydiki, konstitutsiyaviy normalar va tamoyillar me'yoriy hujjatlar shaklida ifodalangan davlatning siyosiy organlari tomonidan eng muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga qay darajada ta'sir qiladi. Bunday qarorlarga misol tariqasida byudjet qonunlari, soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunlar, iqtisodiy inqirozdan chiqish yo'llari to'g'risidagi qonunlar va boshqalar kiradi[3].

Konstitutsiyaviy iqtisodga oid g'oyalar amerikalik iqtisodchi Jeyms Byukenen tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u 1986 yilda "iqtisodiy va siyosiy qarorlar qabul qilish nazariyasining shartnomaviy va konstitutsiyaviy asoslarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlari uchun" iqtisod bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan [4]. Byukenen, aksariyat g'arb iqtisodchilari singari, "konstitutsiyaviylik" atamasini "mamlakat konstitutsiyasini qo'llash va o'rganish" dan bir oz kengroq talqin qiladi, chunki ingliz tilida "konstitutsiya" tushunchasi nafaqat davlatning asosiy qonuniga ishora qiladi, balki korporatsiyalar va firmalarning nizomlariga, diniy va jamoat tashkilotlarining ichki qoidalariga va boshqalarga nisbatan Lars Adam Smitning "qonunchilik fani" haqidagi g'oyalarining zamonaviy davomi sifatida ham ishlatiladi.[5]

Konstitutsiyaviy iqtisod tushunchasining yuridik fanga keng kirib kelishi xalqaro huquqning rivojlanishi va milliy davlatlar qonunchiligining xalqaro huquqqa moslashtirilishi natijasida paydo bo'lgan ehtiyoj deyishimiz mumkin. Ayniqsa, 1966-yilda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt"ning qabul qilinishi bu borada yirik o'zgarishlarni boshlab berdi. Iqtisodiy huquqlar konstitutsiyaviy qonunlar darajasida mamlakatlar huquq tizimida keng ifodasini topa boshladi. 2-jahon urushidan keyingi davrda davlatlar tanlagan rivojlanish yo'llari yoki davlat tizimlari eskirib, zamon talablariga javob bermay boshladi. Dunyoda demokratik qoidalar ustuvor ahamiyatga ega bo'la boshlashi natijasida milliy davlatlar qonunchiligi xalqaro huquqiy prinsiplarga yaqinlashdi. "Iqtisodiy konstitutsiyalar" o'z davrining mahsuli bo'lib, ijtimoiy birdamlik darajasi va iqtisodiy hayotning xususiyatlari ular tartibga soluvchi munosabatlar mazmuniga eng bevosita ta'sir ko'rsatgan. Iqtisodiy konstitutsiyaviylik hokimiyat ustidan nazorat institutlarini huquqiy



rasmiylashtirish, iqtisodiy erkinlikni mustahkamlash bilan fuqarolarning hokimiyat subyekti maqomini olish yo'li sifatida shakllanganligini tushunish muhim masala hisoblanadi. Turli tarixiy davrlarda, hukmronlik ta'siri ostida konstitutsiyaviy hujjatlarda iqtisodiy tuzilma amaliy natijalarni berib keldi. Chunki iqtisodiy hayotning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi eng oliy yuridik kafolatni ta'minlaydi. Oliy yuridik kafolat bilan malakalangan har qanday voqeilik katta ta'sir ostida rivojlanadi. Bunday holda qonun ustuvorligini ta'minlash birmuncha yengilroq bo'ladi.

Konstitutsiyaviy iqtisod masalasida AQSh qonunchiligi yangi davr jahon konstitutsiyaviy qonunchiligida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, AQSh qonunchiligi bir qancha jihatlari bilan boshqa davlatlar qonunchiligidan farq qilib turadi. Amerika konstitutsiyaviy huquq doktrinasi an'anaviy ravishda iqtisodiy huquqlarni asosiy deb tasniflamaydi, ammo bu iqtisodiy sohani konstitutsiyaviy va huquqiy tartibga solishning yo'qligini anglatmaydi. (Iqtisodiy huquqlar shtat qonunchiligida batafsilroq tartibga solindi, ammo ular faqat konstitutsiyaviy huquqlar darajasiga ko'tarildi.)[6]

AQShda 1953 yildayoq butun mamlakat bo'yicha vakillarning keng tarmog'iga ega kichik biznes ishlari bo'yicha ma'muriyat tashkil qilingan, unda 4000 xodimlar xizmat qiladilar. Mazkur tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishi shaxsiy ishni ochish va olib borishda yordam berish, kichik biznesga kreditlar va kafolatlangan qarzlarni berishdan iborat bo'ladi. Shuningdek, 1953 yilda iqtisodiyotning monopolistik sektorini davlai tomonidan tartibga solishning huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi kichik biznes haqidagi qonun qabul qilingan. 1986 yilda kichik korxonalariga yangi texnologiyalar, ilmiy-texnik va tajriba-konstruktorlik tashkilotlarining ishlanmalarini topshirish imkonini ta'minlovchi qonun qabul qilingan.[7]

1970-1973 yillarda "Maloe prekrasnoe" shiori yuzaga kelgan. Uning natijasida yirik kompaniyalar mayda korxonalariga ajrala boshlagan.[8]

Shuningdek, AQShda kichik korxonalariga ko'pchilik yarim hukumat tashkilotlar yordam ko'rsatadilar: xizmatlar savdosi sohasidagi siyosat bo'yicha qo'mita, prezident qoshidagi xususiy tadbirkorlik muammolari bo'yicha maxsus komissiya, sanoat raqobatbardoshligi bo'yicha komissiya va boshqalar. Ushbu masalalar shtatlar qonunchiligida o'z aksini topgan.

Yaponiyada kichik va o'rta korxonalarini qo'llab-quvvatlashda kichik va o'rta biznes bo'yicha boshqarma, kichik va o'rta korxonalarlarni rivojlantirish bo'yicha davlat korporatsiyasi, moliyalashtirish bo'yicha milliy korporatsiya, kichik va o'rta korxonalar assotsiatsiyalarining butun yapon federatsiyasi, kichik va o'rta korxonalar butun yapon markazi va boshqalar faoliyat yuritadi. Shuningdek, o'nga yaqin maxsus banklar kichik va o'rta korxonalarini kreditlashga xizmat qiladi.

Yaponiyada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: imtiyozli soliqqa tortish, jadallashtirilgan amortizatsiya, imtiyozli kreditlashtirish, xodimlarni o'qitishda yordam, bankrotlik hoida yordam ko'rsatish, kichik va o'rta korxonalarining texnik darajasi o'sishini rag'batlantirish[9].

Shuningdek, Fransiyada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi – bandlikning ko'payishi va raqobatbardoshlikning o'sishidir. Buning uchun Fransiyada qo'yidagilar amalga oshiriladi: to'g'ridan-to'g'ri yordam, axborotlarga kirish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish va boshqalar.



Umuman olganda, konstitutsiyaviy iqtisod davlatning iqtisodiyotdagi mutloq rolini anglatmaydi. Balki, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi erkinlik, mulkchilik munosabatlarida adolat va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan qoidalarni nazarda tutadi. Iqtisodiyotning konstitutsiyaviy darajada huquqiy ta'minlanishi mulkchilik va iqtisodiy faoliyat erkinligining huquqiy kafolati deyishimiz mumkin.

Jahon tajribasidan kurinib turibdiki, bugungi bozor munosabatlariga chuqur kirib borish kishidan yuksak bilim va huquqiy madaniyatni talab qiladi. Tadbirkor shaxs faqat foyda olish yo'llarini bilishi kamlik qiladi. U yangi qabul qilingan qonun hujjatlari bilan muntazam tanishib borishi, ayniqsa, ularni mustaqil qo'llay olishi muhim hisoblanadi. Tadbirkor shaxsning huquqiy bilimsizligi nafaqat uning faoliyatida qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga, balki qonun hujjatlarining buzilishi holatlariga ham sabab bo'ladi. Shuning uchun yaratilgan qo'layliklardan unumli foydalanish, yangiliklardan tez xabardor bo'lish, qonun hujjatlari bilan muntazam tanishib borish va faoliyatida unga qat'iy amal qilishi tadbirkor shaxs faoliyatining asosiy mezoniga aylanmog'i lozim.

O'zbekistonda ham mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida iqtisodiy qonunchilik va uning konstitutsiyaviy asoslari yaratildi. Shartli ravishda mamlakatimizdagi iqtisodiy va konstitutsiyaviy islohotlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Mulchilikning konstitutsiyaviy kafolatlari yaratildi;
2. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari yaratildi;
3. Davlat va xususiy sherikchilik tizimi ishlab chiqildi;
4. Yerga egalik huquqi va servitut huquqi takomillashtirildi;
5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng miqyosda qonunchilik ishlab chiqildi;
6. Konstitutsiyaviy qoidalar negizida yuridik javobgarlik tizimi takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-68 moddalarida ham iqtisodiyotga oid qator muhim normalar kiritilgan bo'lib, iqtisodiyotning demokratik davlatlarga xos bo'lgan asosiy prinsiplarini belgilab bergan. Iqtisodiyotning va mulkchilikning asosiy huquqiy aspektlari va huquqiy maqomi, subyektlarning huquq va majburiyatlari mustahkamlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida [10] iqtisodiyotning negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlashini belgilab bergan.

O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanishi, xususiy mulk daxlsiz ekanligi, mulkdor o'z mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etilishi mumkin emasligi haqidagi qoidalarning o'rnatilishi mulk huquqining daxlsizligiga davlatning kafolat berishi hisoblanadi. Iqtisodiyot mana shunday konstitutsiyaviy tarzda beriladigan huquqiy kafolatlar asosida rivojlanadi. Mazkur konstitutsiyaviy qoidalar Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 17-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, "1. Har bir inson yakka holda, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega. 2. Hech kim zo'ravonlik bilan o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas." [11]



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida [10] belgilangan qoidalar davlat va xususiy tadbirkorlarning iqtisodiy munosabatlarda huquqlari va vakolatlarining doirasini belgilaydi. Birinchi navbatda ushbu moddada davlatning tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo'shadigan umumiy xissasini, tadbirkor uchun tayanch bo'luvchi vositalarini belgilaydi. Ya'ni, davlat qulay investesiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Bu davlatning tadbirkor oldidagi majburiyati sanaladi.

Tadbirkorlarning qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekanligi bugungi zamonaviy iqtisodiyotning asosiy talablaridan biridir. Bu konstitutsiyaviy qoida boshqa qonunlar vositasida yanada mustahkamlangan.

Konstitutsiyada belgilangan ushbu normalar O'zbekiston iqtisodiyotining huquqiy asoslarini shakllantiradi va uning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Biroq, bu sohada bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ularni hal etish uchun samarali iqtisodiy islohotlar va huquqiy mexanizmlar talab qilinadi.

Muammo	Tavsif
Byurokratik to'siqlar	Litsenziyalash jarayonlari ayrim subyektlar uchun haligacha murakkab bo'lib qolmoqda. Ushbu to'siqlar qonunchilik nuqtai nazaridan to'la bartaraf etilgan. Ammo, hududlarda muayyan shaxslar doirasida bu saqlanib qolmoqda.
Monopoliya va raqobat yetishmovchiligi	Ayrim tarmoqlarda monopoliya saqlanib qolayotganligini ko'rishimiz mumkin. Buning natijasida kichik biznes subyektlari faoliyati sust rivojlanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari soni kamayib borayotganligining asosiy sabablaridan biri – monopolistik faoliyat mavjudligi va raqobatning yetishmasligi hisoblanadi.
Korrupsiya	Iqtisodiyotning asosiy dushmani va ko'shandasi korrupsiya hisoblanadi. Korrupsiya natijasida tadbirkorlik faoliyati qiyinlashadi, jamiyatda iqtisodiy barqarorlik yo'qoladi. Narx siyosatini nazorat qilib bo'lmaydi yoki aholi uchun noqo'lay narxlar shakllanishiga, mamlakatda valyutaning inflyatsiyasi yuqori bo'lishiga olib keladi.
Mehnat bozoridagi muammolar	Bozor sharoitlarida ishsizlik va mehnat resurslaridan oqilona foydalanmaslik ham iqtisodiyot rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
Xorijiy investitsiyalar uchun to'siqlar	Xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar yetishmovchiligi.
Er va mulkka egalik huquqi	Er resurslaridan samarali foydalanishda huquqiy muammolar. Davlatning yerlarni boshqarishga oid davlat siyosatining tez o'zgarishi, hududlarda yerga noqonuniy egalik qilish holatlarining uchrashi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:



- Elektron hukumat tizimini yanada kengaytirish, litsenziya olish jarayonlarini soddalashtirish.
- Monopoliyaga qarshi kuchli qonunchilik va nazorat mexanizmlarini joriy etish. Monopoliyaga qarshi organlar vakolatlarini takomillashtirish. Xususan, ularning faoliyatiga aralashganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari belgilash.
- Korrupsiyaga qarshi jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirish, bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning sud tomonidan tayinlangan jazolarni to'liq o'tashi belgilanishi. Korrupsiyaga qarshi kurashda nodavlat notijorat tashkilotlarning ta'sirini oshirish, buning uchun qonunchilikda huquqiy kafolatlarni mustahkamlash.
- Kichik va xususiy biznesni rivojlantirish uchun kreditlashtirish tizimini qayta ko'rib chiqish va soliq yukini kamaytirish lozim.
- Xorijiy investorlar uchun qonuniy kafolatlarni kuchaytirish va erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish.
- Yerga xususiy mulkchilik huquqini mustahkamlash va qonunchilikni takomillashtirish. Ya'ni, yer egasi va davlat o'rtasida yerdan uzoq muddat foydalanish haqida tuzilgan renta shartnomalariga keyingi qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va dasturlarning ta'sir qilmasligi amaliyoti belgilanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asosini belgilab beradi. Biroq, amaldagi muammolarni bartaraf etish uchun islohotlarni jadallashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va investorlarni himoya qilish bo'yicha qo'shimcha choralar zarur.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. Mau V. A. Konstitutsionnaya ekonomika i istoriya// Zakonodatelstvo i ekonomika. 2003. № 12. S. 21-22.
2. Barenboym P. D., Kutafin O. Ye. Status Sentralnogo banka kak osnovnoy vopros konstitutsionnoy ekonomiki// Bank Rossii v 21 veke/ Pod red. P. D. Barenboyma i V. I. Lafitskogo. M.: Yustitsinform, 2003. S. 13. ISBN 5-7205-0493-1.
3. Gadjiev G. A. Eticheskie osnovy filosofsko-pravovoy kategorii «obshche blago» v kontekste konstitutsionnoy ekonomiki Arxivnaya kopiya ot 7 iyulya 2016 na Wayback Machine// Filosofiya prava v nachale XXI stoletiya cherez prizmu konstitutsionalizma i konstitutsionnoy ekonomiki/ Sost. P. D. Barenboym i A. V. Zaxarov. M.: Letniy sad, 2010. ISBN 978-5-98856-4.
4. The Sveriges Riksbank Prize in Economic Sciences in Memory of Alfred Nobel 1986 James M. Buchanan Jr. Data obraçeniya: 16 avgusta 2010. Arxivirovano 31 maya 2013 goda.
5. Ludwig Van den Hauwe, 2005. «Constitutional Economics II,» The Elgar Companion to Law and Economics, pp. 223-24 Arxivnaya kopiya ot 20 sentyabrya 2014 na Wayback Machine.
6. Levakin Igor Vyacheslavovich, Yurtaeva Evgeniya Anatolyevna. Davlatlar va xalqlar evolyutsiyasi sharoitida «iqtisodiy konstitutsiyalar». Tarixiy tadqiqotlar jurnali, 2018 – 4. 10.25136/2409-868X.2018.4.24782.
7. M. Qosimov va boshqa. "Kichik biznesni boshkarish." T. O'qituvchi. 2003 y. 100- bet.
8. A.Abdullaev va boshqalar, "Kichik biznesni boshqarish" T., Moliya, 2003 yil, 26 – bet.



9. Qosimova M. va boshqalar “Kichik va xususiy biznesni boshqarish”. T., “O‘qituvchi”2003 yil. 101 – bet.
10. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145> (Constitution of the Republic of Uzbekistan).
11. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e‘lon qilingan. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.